

# **Central Asian Academic Journal of Scientific Research**

**ISSN: 2181-2489**

## **ACCEPTANCE AREAS OF THE JOURNAL**

- Exact and natural sciences;
- Medicine, ecology and defectology;
- Engineering, economics and architecture;
- Pedagogical and psychological sciences;
- History, law and education;
- Language and literature issues;
- Philosophy, aesthetics, logic, sociology;
- Music, art and culture;
- Physical education and sports

**VOLUME 2  
ISSUE 1**

**2022/I**

**[www.caajsruz](http://www.caajsruz)**

CENTRAL ASIAN  
ACADEMIC JOURNAL OF  
SCIENTIFIC RESEARCH

ISSN: 2181-2489  
VOLUME 2, ISSUE 1  
JANUARY 2022

## ONA TILI TA'LIMIDA LUG'AT BILAN ISHLASH MASALALARI

Hilola Ilyos qizi Jahonova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar: Intizor Kamilovna Abdirimova*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek tili va tafakkuri to'g'risida, ona tili darslarini ta'lif tizimida yangicha yondashuv asosida o'qitilishi, jumladan, ona tilini o'qitishda lug'atlarning o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, lug'at, ona tili, ta'lif tizimi, o'qituvchi, o'quvchi,yondashuv.

## DICTIONARY ISSUES IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION

### ABSTRACT

This article discusses the Uzbek language and thinking, the teaching of native language lessons in the education system on the basis of a new approach, including the role of dictionaries in the teaching of the native language.

**Keywords:** speech, dictionary, uzbek as a native language, education system, teacher, student, approach.

### KIRISH

Mamlakat rivojlanishida ko'pincha yosh avlod asosiy o'rinni tutadi. Yoshlarning ma'nani yetuk va bilimli bo'lish kabi xislatlarni shakllanishiga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta'lif – tarbiya tizimi hisoblanadi. Yosh avlodning ta'lif – tarbiyasiga e'tibor qaratish davlat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ta'lif tizimining ona tili darslarida o'quvchilar tilshunoslik bo'limlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Til millatning ma'naviyat ko'zgusi, ma'rifat chirog'i, bilim kaliti bo'lganligi uchun uni o'rganish, tahlil qilish va yosh avlodga til grammatikasi, semantikasi bo'yicha ta'lif berish tilshunoslik soha vakillari oldida turgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson borliqdagi jarayonlarni idrok qilishi, anglashi va fikrlashida ona tilining o'rni beqiyosdir.

### ASOSIY QISM

Shuning uchun til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda bo'lib, inson ongidagi o'y-xayollari va fikrlarini shu orqali bilish mumkin. Insoniyatga ibrat bo'la oladigan odamning nutqi, fikrlari, muomala madaniyati xuddi bahorda esadigan

yoqimli shabadaga o'xshaydi. Aksincha, ongida salbiy fikrlar, yomon niyatlar bo'lgan, hasad, kibr, manmanlik cho'qqisiga chiqqan kimsaning nutqi qish qahratonidagi sovuq misoli yoqimsizdir. Ona tiliga bo'lgan muhabbat, hurmat boshlang'ich ta'lif jarayonlaridan boshlanadi.

Ona tili darslari jarayonida o'quvchilarning til malakalari takomillashib, fikrini to'g'ri, ongli va ifodali bayon etish, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatları o'sib boradi. [2.28]. Afsuski yuqori sinflarga o'tgan o'quvchilarning aksariyati o'zbek tiliga faqatgina so'zlashuv vositasi va ta'lif olish quroli sifatida qaraydi. Darsliklardagi grammatik bilimlarni ham imtihonlardan o'tish va test yechish uchungina o'rganadi. Zamonomiz yoshlari darsliklar zerikarli tuyilishi mumkin. Shu maqsadda umumiyligi o'rta ta'lif maktablari uchun darsliklarning mazmuni, dizayni va matnida imlo xatolarsiz nashrga tayyorlash, amaldagi o'quv qo'llanmalardagi xato va kamchiliklarni tuzatish maqsadida "Darsliklarga taklif" kanali tashkil etildi, bu kanal oculishi bilan til haqida uning rivojlanish bosqichlarini takomillashtirish yuzasidan sakkiz mingdan ortiq talab va takliflar bo'ldi. Respublika ta'lif markazi tomonidan o'rinali deb topilgan 1600 ga yaqin taklif qabul qilindi. 2025-yilgacha yangi darsliklar ishlab chiqish masalalari respublika miqyosida o'tkazilgan seminarda muhokama qilindi. Bu esa til o'rganishdagi talab va takliflarni amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir tilning faxrlanadigan asosiy jihatlaridan biri uning lug'at boyligidir. O'zbek tili ham lug'atga boy til bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati", "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati", "O'zbek tilining orfografik lug'ati", "O'zbek tilining etimologik lug'ati", "Hozirgi o'zbek adabiy tili faol so'zlarining izohli lug'ati", "O'zbek ismlari lug'ati" kabi lingvistik va qomusiy lug'atlar yaratilgan. Ular ona tilimiz xazinasidir. Afsuski, hozirda ona tili darslari faqat qoida yodlab, mashq bajarish bilan chegaralanib qolgan. Lug'atlardan mifik darslari tugul, boshqa ta'lif bosqichlarida ham foydalanish miqdori juda kam. Faqat DTM testlarini yechish uchun imlo lug'atiga ba'zida ko'z tashlanadi, xolos. Ingliz, rus, arab tili o'rganishga brogan o'quvchidan ilk darslardanoq lug'at kitob xarid qilib, yodlash talab qilinadi, chunki lug'at bilan ishlash samarali natija beradi. O'quvchilarning savodxonligi yaxshi rivojlanishi uchun o'zbek tiliga doir lug'atlarni o'rganishni keng yo'lga qo'ysak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona tili fanining vazifasi o'qituvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'z fikrini batafsil, chiroqli bayon qilishga o'rgatishdir. Fikr esa til orqali bayon etiladi.

Tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev til qurilishida uning ikki holatini - lison va nutq tushunchalarining farqlanishi haqida yozadi. "Lison, - deb yozadi olim, - kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklaridan va ulardan foydalanish qoidalardan iborat boylik. Nutq esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi" [3.4].

Shunday ekan, har bir millat vakili o‘z ona tilni va undan foydalanish taktikasini, albatta, bilishi kerak. Bu jarayonda tilning grammatikasini o‘rganish bilan birga, tilimizning nutqiy faoliyatdagi mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanib, bayon etilayotgan fikrini, ham og‘zaki, ham yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli tarzda tinglovchiga yetkazish muhimdir. Bunda ona tili dasrlarida lug‘at ustida ishlashga alohida e’tibor berish kerak. Lug‘at ustida ishlash jarayonida so‘zning imlosi, ma’nosи, talaffuzi e’tiborga olinib, shular ustida ishlashga ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarining nutqda o‘zgalar nutqini anglashlarini ta’minalash maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun o‘qituvchi ona tili darslarida qo‘llanadigan har bir so‘zning, ta’lim jarayonlarida, ishlatiladigan so‘zlarning ma’nosiga e’tibor bilan qarashi, ularning qaysilarini ustida alohida ishlash kerakligiga aniqlik kiritishi lozim.

Tilning lug‘at boyligini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so‘zlarning quyidagi ma’nolari bilan tanishtiriladi:

- ✓ O‘quvchilarni notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish.
- ✓ O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish.
- ✓ O‘quvchilar tilida kam qo‘llaniladigan so‘zlar ma’nosи ustida ishlash.
- ✓ Yangi paydo bo‘lgan so‘z ma’nolari ustida ishlash.
- ✓ Grammatik atamalar ma’nosи bilan tanishtirish. [4.79].

O‘quvchilar darslikdagi so‘z va iboralarga yangi paydo bo‘lgan so‘z bo‘lmasa ham birinchi marta duch kelayotgan bo‘lishi mumkin. Ular ko‘p ma’noli so‘zlarning bir ma’nosini tushunsa, boshqa ma’nosini bilmasliklari mumkin. So‘z ma’nosini o‘zlashtirish bosqichma - bosqich amalga oshiriladi. Adabiy tilga oid ba’zi so‘zlar o‘quvchilar nutqida kam qo‘llaniladi. Ularning o‘rnida oddiy so‘zlarni qo‘llashadi. O‘qituvchi ularni kitobiy so‘zlar bilan almashtirish uchun nutqida qo‘llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi zarur. Bunday so‘zlarning bolalar hayoti bilan bog‘liq bo‘lganlarini ajratib olib “Bilib qo‘ygan yaxshi” rubrikasi ostida ishlansa o‘quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi. O‘quvchilarga grammatik atamalarning to‘g‘ri talaffuzi, imlosi o‘rgatilgandan keyin misollar asosida uni mazmuni ochiladi. Qoidani o‘qitish va mashqlar bajarish orqali atama ma’nosini to‘laqonli anglashlariga erishiladi.

O‘quvchilar nutqini o’stirish va lug‘at boyligini takomillashtirish uchun tilning leksika bo‘limi so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosи, ko‘p ma’noli so‘zlar, kam ishlatiladigan so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralarni o‘rganish jarayonida sinonimlarni qo‘llash, tilning sinonimik imkoniyatlaridan foydalanish maqbul usul hisoblanadi. O‘quvchilar yozma savodxonlikni oshirishning muhim jihatи matnlar xilma-xillagini ta’minalashdir. Ona tili darsliklaridagi matnlar va mashqlar asosan, badiiy asarlardan olinadi, lekin o‘zbek tilining lug‘at boyligi faqat bu bilan o‘lchanmaydi. Jamiatning har bir sohasiga tegishli matn bu - o‘zbek tili o‘rganadigan obyekt hisoblanadi.

## XULOSA

Ona tili darslarida o'quvchilarning lug'at bilan ishlash malakasini shakllantirsak, yuqori natijalarga erishamiz. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis ona tilini chuqur bilmasligi mumkin, aksincha o'zbek tilining yetuk bilimdoni IT sohasini tushunmasligini guvohi bo'lamiz. Bu ikki shaxsning bilimi birlashsagina, o'zbek tili ham zamonaviy texnologiyada o'z o'rnini egallab, xalqaro tillar safiga kiradi. Bu uchun har bir yosh o'quvchi o'zbek tiliga doir lug'atlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "Universitet" nashriyoti. – T., 2006, 4. bet
4. G'afforova T. va b. "Ona tili", T., "O'qituvchi", 2001 yilgi nashr.

## OT SO‘Z TURKUMINI O‘QITISH USULLARI

**Jonibek Tohirjon o‘g‘li Jalilov**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar: Intizor Kamilovna Abdirimova*

### ANNOTATSIYA

Maqolada ona tilining izchil kursida beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar, ona tili darslarining maqsadi, shu jumladan, ot so‘z turkumining umumta’lim maktablarida o‘qitish usullari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ot so‘z turkumining o‘qitish jarayoni ketma-ketlikda amaliy topshiriq va misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z turkumlari, ot so‘z turkumi, morfologiya, topshiriq, ona tili, o‘quvchi, mактаб.

### METHODS OF LEARNING NOUNS

### ABSTRACT

The article examines the knowledge, skills, and abilities provided by a sequential course of the native language, the purpose of the native language lessons, including the methodology of teaching the noun in general education schools, the process of learning the noun is illustrated with practical tasks and examples.

**Keywords:** phrases, nouns, morphology, homework, native language, student, school.

### KIRISH

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi ta’siri va mavqyeini yanada oshirish, «Davlat tili haqida»gi qonunni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish zarur.

Ona tili darslarining maqsadi o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, nutqiy malakasini o‘stirish, ijodiy fikrlashga yo‘naltirish bilan bir qatorda ona tilimizni sofligini saqlashdir.

### ASOSIY QISM

Ma’lumki, ta’lim tizimidagi barcha fanlar, xususan, ozbek tili darslarida ham ta’limning didaktik materiallardan, o‘yin-mashq usullaridan, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu haqda qator mutaxassislar, jumladan,

R.Ishmuhamedov, A.Nisanbaeva, B.To‘xliev, K.Usmonova kabi tilshunoslar o‘zlarining tadqiqot ishlarida, monografiyalar va maqolalarida fikr yuritganlar. Ona tili darslarida so‘z turkumlari mavzularini, xususan ot so‘z turkumini o‘qitishda grammatik topshiriqlar, ko‘rsatmali vositalar, tarqatma materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalar hosil qilish, didaktik vositalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, unga xos xususiyatlarni tahlil qilish samarali natijalar beradi.O‘quvchilar morfologiyaga oid dastlabki ma’lumotlar bilan boshlang‘ich sinflarda tanishadilar. So‘zlarni otlar, sifatlar, sonlar, fe’llar, olmoshlar, yordamchi so‘zlar kabi guruhlarga ajratish boshlang‘ich sinfdan ularga ma’lum. Ona tilining izchil kursidan beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar avvalo boshlang‘ich sinflarda egallangan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning mantiqiy davomi sanaladi.

Maktabda morfologiyani o‘qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki keyingi bosqichda o‘rganiladigan “Sintaksis” bo‘limi bevosita morfologiya bilan bog‘langan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-son qo‘sishchalar garchand morfologiya obyekti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida so‘z va so‘z birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta’minlovchi vosita sanaladi. Qo‘sishchalar gap sintaksisini o‘rganishning bevosita yordamchi so‘zlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. [2.54].

Shunday qilib, maktab morfologiya kursi quyidagi vazifalarni hal qilishni ko‘zda tutadi:

- o‘quvchilarni so‘z yasashga, so‘zning yangi shakllarini hosil qilishga o‘rgatish;
- so‘z zaxirasini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini kengaytirish;
- so‘zlarning aloqa-munosabat shakllaridan foydalanish malakalarini kengaytirish;
- ilmiy savodxonlikni takomillashtirish;
- gap guruh va matn yaratish malakalari ustida ishlash;
- DTSda ko‘zda tutilgan talablar asosida har bir mavzuni o‘rganish jarayonida uni izchillik bilan amalga oshirish.

O‘qituvchi o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqida ma’lumot beradi. Mavzu bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarni tkarorlash uchun lug‘at diktanti yozdirishi mumkin.

### Lug‘at diktanti

Uy, to‘y, tosh, chaqmoq, momaqaldiroq, daraxt, majlis, odob, azob, do‘stlik, kitob, ishchi, go‘zal, kichik, shirin, bilimli, oq, o‘qi, yoz, chok, kel, o‘yla, ishladi, uxladi, suhabatlashdi, so‘zladи.

Diktant yozib bo‘lingach, o‘quvchilar har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosini sharhlashlari va uning qaysi so‘z turkumlariga qarashli ekanligini aytishlari lozim bo‘ladi.

1 – topshiriq.

1. Uy – odamlar yashaydigan, deraza, eshik, tomi bor bino: uy – nima? So‘rog‘iga javob bo‘ladi, ot – so‘z turkumiga kiradi.

2. To‘y – tantana, beshik to‘yi, nikoh to‘yi, xatna to‘yi, oltin to‘y kabi tantanali marosim; to‘y – nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ot so‘z turkumiga kiradi.

3. Ishchi - biror foydali mehnat bilan shuIullanuvchi shaxs; kim? so‘roiga javob bo‘ladi, ot.

4. Go‘zal – ma’nodoshlari: chiroyli, ko‘rkam, jozibali; qanday? so‘roliga javob bo‘ladi, sifat.

5. O‘qidi, ishladi – tugallangan harakat ma’nosini bildiradi: qiziqib o‘qidi, tinmasdan ishladi, fe’l.

2 – topshiriq. Mazkur so‘zlar bilan so‘z birikmalari hosil qiling, gaplar tuzing. Kim? nima? qanday? nima qildi? nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarning tagiga chizing. Ularning qanday so‘z turkumiga qarashli ekanligini aytib bering.

3. Ot, sifat, fe’l turkumlariga oid so‘zlarni ajratib guruhlang.

Shu tariqa lug‘at diktanti tarkibidagi so‘zlar og‘zaki sharhlansa, o‘quvchilarda:

- tafakkur doirasi kengayadi;
- fikr ifodalash ko‘nikmasi rivojlanadi;
- nutqda so‘z qo‘llash malakasi shakllanadi;
- so‘z turkumlari yuzasidan egallangan bilimlar umumlashtiriladi.

Mustaqil so‘z turkumlaridan biri ot so‘z turkumi hisoblanadi. Otning predmet nomini bildirishi kim? nima? so‘roqlariga javob bo‘lishi, atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, otlarga qo‘shiladigan kelishik qo‘srimchalari boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarga ma’lum. Mazkur so‘z turukumini o‘rganishda avvalo ana shu o‘rganilganlarni xotirada tiklash maqsadida qayta xotirlash va qisman ijodiylikka asoslangan ta’limiy mashqlar o‘tkaziladi. Takrorlash jarayonida “predmet” tushunchasiga kengroq to‘xtalish lozim. Predmet deganda nafaqat qo‘l bilan ishlash, ko‘z bilan ko‘rish yoki o‘lchash mumkin bo‘lgan narsalar, balki umumiylikni ifodalovchi nomlar ( ovqat, imorat), tabiat hodisalari va turli voqealarning nomi (toshqin, zilzila, momaqaldiroq), harakat nomlari (bilim, terim), belgi-holat nomlari (baxillik, saxiylik, ozodlilik, tashvish) ham tushiniladi.

Otning lug‘aviy ma’nosи, morfologik belgilari va sintiktik vazifalariga oid zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar, asosan, amaliy ishlar orqali o‘quvchilar ongiga singdiriladi. Dastur talabiga ko‘ra mazkur so‘z turkumi yuzasidan o‘quvchilarni otning lug‘aviy shakllari (son shakli, kichraytirish shakllari) atoqli va turdosh otlar, atoqli otlar, ularning turlari va imlosi, kishi nomlari, o‘rin-joy nomlari (toponimlar) va ularning imlosi, mahsulot nomlari va imlosi; turdosh otlar va ularning guruhlari (aniq va mavhum otlar, aniq otlarning ma’noviy guruhlari, shaxs otlari, qavm-qarindoshlik otlari, kasb-koriga ko‘ra shaxs otlari, shaxsni boshqa jihatlariga ko‘ra atovchi otlar, shaxs otl

birikmalar, hayvonot nomlari (zoonimlar), daraxt va o'simlik nomlari, narsa-buyum otalari, modda-ma'dan, xomashyo anglatuvchi otlar, o'rin-joy (makon) otari, payt (zamon) anglatuvchi otlar, mavhum otlar yuzasidan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish ko'zda tutilgan.

"Ot" so'z turkumini o'rganish bu turkum haqida umumiyligi ma'lumot berish bilan boshlanadi. O'quvchilar Toshkent, Buxoro, "G'uncha", "O'zbekiston ovozi", Ro'zimurodova, gul, qo'shiq, non, tuz, go'zallik, sog'lik, san'at, nafosat singari otlarning har biriga so'roq berish va guruhlarni mustaqil davom ettirish, har bir guruhdagi otlar uchun umumiyligi bo'lgan ma'noni aniqlash va sharhlash orqali boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlarni xotirada tiklash va uni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu mustaqil ishlarni bajarish natijasida ular quyidagi xulosaga keladilar:

Kim? Nima? so'roqlariga javob bo'lib, yakka shaxs, narsa nomlarini, bir turdagiga jonli va jonsiz narsa-buyum, voqe'a-hodisa, harakat-holatlarni atab keladigan so'zlar o'turkumiga kiradi. [3.101].

Shundan so'ng "Otlarning lug'aviy shakllari" mavzusini o'rganiladi. O'quvchilar otlarning son shakllari bilan tanishar ekanlar, daraxt-daraxtlar, uy-uyilar singari so'zlarning shakli ustida ishlaydilar, ko'plik ma'nosini ifodalovchi boshqa vositalarni aniqlaydilar; bu so'zlar ishtirokida gaplar tuzib, ko'plikni ifodalovchi qo'shimchalar ma'nosini sharhlaydilar.

Atoqli otlar o'rganilar ekan, avvalo atoqli otlar jumlasiga kira digan so'zlar ustida ish olib boriladi. Chunonchi berilgan so'zlarni: 1) kishilarning ismi, familyasi, taxallusini ifodalovchi otlar; 2) jug'rofiy nomlar; 3) turli tashkilot, korxona, muassasa nomlari; 4) planeta va yulduzlarning nomi; 5) tarixiy hodisalar, ro'znama, oynoma va ilmiy muassasalarning nomlari; 6) hayvonlarga maxsus qo'yilgan nomlar kabi guruhlarga ajratish, hosil bo'lgan guruhlarni mustaqil davom ettirish "belgi nomi-turdosh ot" qolipli qo'shma toponimlar, "belgi nomi atoqli ot" qolipli jug'roviy nomlar ro'yxatini tuzish singari ijodiy-amaliy ishlar o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va so'z zaxirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarning so'z zaxirasini shaxs otlari bilan boyitish uchun matndan shaxs otlarini ajratish, tub va yasamalariga ko'ra guruhlash, ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlab guruhlarni kengaytirish, **-chi, -vchi, -uvchi, -dosh, -kor, -zor, -shunos** kabi qo'shimchalar yordamida shaxs otlari hosil qilish, juft shaxs otlari lug'atini tuzish ularning imlosi ustida ishlash kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi. O'quvchilar egallagan bilimlarga asoslanib, istagan matndan otlarga so'roq berish orqali ularni aniqlashga erishgach, bu otlar predmetning aniqligi, ya'ni ishslash, ko'rish o'lchash mumkinligi va mumkin emasligiga qarab aniq va mavhumlarga ajratadilar hamda hosil bo'lgan guruhlarni mustaqil davom ettiradilar. Masalan:

Ishlash, ko‘rish, o‘lchash mumkin bo‘lgan predmetlarning nomi	Qo‘sishimchasi	Ishlash, ko‘rish, o‘lchash mumkin bo‘lmagan predmetlarning nomi	Qo‘sishimchasi
<b>avtobus</b>	- -	<b>xushmuomallik</b>	- lik
<b>ishchi</b>	- chi	<b>isrofgarchilik</b>	- lik
<b>zavod</b>	- -	<b>oqim</b>	- -
<b>mahsulot</b>	- -	<b>tuyg‘u</b>	- -

O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishida otli birikmalar ustida ishlash muhim o‘rin egallaydi. Matndan otli birikmalarni ajratish, berilgan so‘zlar ishtirokida shunday birikmalar hosil qilish kabi ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilar lug‘atini shunday birikmalar bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, berilgan bosh yoki tobe so‘zga muvofiq keladigan tobe yoki bosh so‘zlar tanlash ancha samarali ish usullaridan biridir. Masalan, maktabimiz o‘quvchilari so‘z dovrug‘i, g‘alabasi, to‘yi, yigitlari, qizlari kabi so‘zlarni topib qo‘sib, maktabimiz kutubxonasi, maktabimiz qizlari kabi so‘z birikmalarini hosil qiladilar.

O‘quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug‘diradigan muammolardan biri qo‘shma otlar va ularning imlosidir. Bu mavzuni o‘rganishda berilgan so‘z birikmalaridan joy nomlari hosil qilish (qora ko‘l-qorako‘l, yangi er-yangier, etti o‘g‘il-ettio‘g‘il, ko‘hna machit-Ko‘hnamachit, katta qo‘rg‘on-Kattaqo‘rg‘on v.h.) qo‘shma so‘zlarni so‘z birikmalariga aylantirish (paxtagul-paxta guli, boshog‘riq-bosh og‘rig‘i, badantarbiyabidan tarbiyasi, muzqaymoq-muz qaymog‘i, gulbozor-gul bozori, otbozor-ot bozori v.h.) berilgan qo‘shma so‘zlar lug‘atini tuzish, ularning imlosini sharhlash singari ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish bu mavzuning puxta o‘zlashtirishini ta‘minlaydi.

Ot so‘z turkumi haqida o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni uslubiyat bilan bog‘lab rivojlantirish uchun turli mavzulardagi matnlardan ma’rifiy foydalansa bo‘ladi. Matnni tahlil qilishda ta’limning oldingi bosqinchlarida o‘rganilgan ot so‘z turkumi haqidagi ma’lumotlariga tayaniladi. Bunda quyidagi amaliy topshiriqlar bajariladi.

1 – topshiriq. Matnda uchragan otlarning lug‘aviy ma’nosini sharhlang. qanday so‘roqqa javob bo‘lishini ayting.

2 – toshiriq. Ajratilgan so‘zlarga, ma’nodosh va uyadosh so‘zlar tanlang.

3 – topshiriq. Kim? nima? qaer? So‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga qarashli ekanligini ayting. Ular bilan ot+ot, sifat+ot, son+ot qolipli so‘z birikmalarini tuzing.

4. Hosil qilingan so‘z birikmalarini ishtirokida gaplar tuzing.

5. Muayyan mavzuga xos gaplar ishtirokida matn yarating.

Ona tili mashg‘ulotlarini ana shunday rivojlaniruvchi o‘quv topshiriqlari, mashqlar va matn taqlillar vositasida olib borish tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi, ta’lim mazmunini takommillashtiradi, o‘quv biluv faoliyatini jadallashtiradi. Nazariyani amaliyot zaminida o‘rganish mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatni o‘stirishga yordam beradi.

O‘quvchilar so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi, va shakl yasovchi qo‘sishimchalar xususida zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashgach, so‘z tarkibi bilan tanishadilar hamda so‘zning asosi xususida umumlashma hosil qiladilar. Bu so‘z turkumlarini puxta o‘rganish uchun poydevordir.

Ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchida og‘zaki va yozma nutqni mukammal egallash, til imkoniyatlaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish madaniyatini tarbiyalaydi. Nutq madaniyati oddiy salom-alikdan tortib, kimga, nimaga, qachon, qaerda, qanday so‘zlashgacha bo‘lgan sharqona odob sirlarini o‘rgatadi. [4.63].

Morfologiyani o‘rganish o‘quvchi mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so‘zning turli shakllarini gap tarkibida hamda bog‘lanishli nutqda o‘rinli ishlatish ko‘nikmalarini rivojlaniradi.

## XULOSA

O‘zbek tilida so‘z turkumlarini o‘rganish boshlang‘ich sinflarda o‘rganilgan bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, o‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin.

1. O‘zbek tilida so‘z turkumlari qanday guruhlarga ajratiladi?
2. Mustaqil so‘z turkumlari qaysilar?
3. Ot so‘z turkumini tasnif qiling.
4. Mustaqil so‘z turkumlariga ta’rif bering.
5. Yordamchi so‘z turkumlari mustaqil so‘z turkumlaridan qanday farqlanadi?
6. So‘zlarning turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar e’tiborga olinadi?

O‘quvchi matndagi so‘zlarning turkumariga to‘g‘ri ajrata olsa, gap bo‘laklarini aniqlashda ham qiyalmaydi. Demak, bu tahlil o‘z-o‘zidan sintaktik tahlil bilan bog‘lanadi. So‘z turkumlarining mohiyatiga to‘la tushunmasdan turib, sintaktik tahlil vaqitida gapning bosh bo‘laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan so‘zlar (“bo‘laklar)ni aniqlash mumkin emas.

So‘z turkumlari bo‘yicha tahlil, so‘z tarkibi bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlil kabi, morfologik tahlilning bir ko‘rinishi bo‘lib, u mifik dasturidagi “So‘z turkumlari” mavzusining masalalarini qamrab oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz, -T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Abdurahmonov G‘. Xo‘jayeva D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (akademik litseylar uchun darslik). –T.: O‘qituvchi, 2003.
3. Jamolxonov. N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2005.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. -T.: O‘zbekiston, 2002.

CONTENTS

**Dilobar Davlataliyevna Mirsalimova**

Mening prezidentim – millatimiz sardori (pp. 5-8)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20001.%205-8.pdf>

**Yulduz Adivasi qizi Jovliyeva, Rayxon Baxritdinova Rasulova**

Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” asaridagi odob-axloqqa oid qarashlari (pp. 9-12)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20002.%209-12.pdf>

**Umidaxon Jumanazarova, Rayxon Baxritdinova Rasulova**

Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” dostonidagi didaktik ruhdagi hikoyatlar va ularning adabiyotimizda tutgan o’rni (pp. 13-19)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20003.%2013-19.pdf>

**Hilola Ilyos qizi Jahonova, Intizor Kamilovna Abdirimova**

Ona tili ta’limida lug’at bilan ishslash masalalari (pp. 20-23)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20004.%2020-23.pdf>

**Jonibek Tohirjon o‘g‘li Jalilov, Intizor Kamilovna Abdirimova**

Ot so‘z turkumini o‘qitish usullari (pp. 24-30)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20005.%20204-30.pdf>

**Mehrangiz Ruystam qizi Qurbonova, Abdishukur Musayevich Shofqorov**

Umumiy o‘rtalim maktablarida xalqaro baholash dastulari (pp. 31-35)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20006.%2031-35.pdf>

**Sug’diyona Nurali qizi Soliqulova, Abdishukur Musayevich Shofqorov**

Tog‘ay Murod asarlarida ritorik-so‘roq gaplarning qo’llanilishi (pp. 36-38)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20007.%2036-38.pdf>

**Nafisa Baxtiyarovna Muratova**

Muloqot jarayonida paralingvistik vositalarning o’rni (pp. 39-43)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20008.%2039-43.pdf>

**Mohizar Ulug‘bek qizi No‘monova**

Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari (pp. 44-48)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20009.%2044-48.pdf>

**Umida Baxtiyor qizi Odambayeva, Musajan Tadjibayev**

Badiiy asarlarning o’ziga xos til xususiyatlari (pp. 49-52)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20010.%2049-52.pdf>

**Aziza Ashrafovna Abbosova**

Maktabgacha ta’limda tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy moslashuvi (pp. 53-57)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20011.%2053-57.pdf>

**Dilnoza Bahtiyorovna Khaitova**

Learning a foreign language through pronunciation and vocabulary challenges (pp. 58-60)

<https://caajsruz/storage/app/media/2-1.%20012.%2058-60.pdf>